Tadqiqotchilarning tahlillariga ko'ra, 2020-yilda AQSH iqtisodiyotining monetizatsiya darajasi 91.7%ni, Buyuk Britaniya – 133.6%, Germaniya – 103%, Fransiya – 118%, Yaponiya – 206.7%, Rossiya – 55%, Xitoy – 215.6%ni tashkil qilgan<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Svetlana Zenchenko, Wadim Strielkowski, Lubos Smutka, Tomáš Vacek. Monetization of the Economies as a Priority of the New Monetary Policy in the Face of Economic Sanctions. Journal of Risk and Financial Management 15(3):140, March 2022. DOI:10.3390/jrfm15030140



Ushbu ko'rsatkichlarning yuqori yoki past darajasi yoxud uning me'yoriy ko'rsatkichi qay darajada bo'lishi iqtisodchi va tadqiqotchilarning diqqat e'tiboridan chetda qolayotgani yo'q.

Shuningdek, iqtisodiyotning monetizatsiya darajasining samaradorlik jihatlarini, shu jumladan, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotini oshirishga, inflyatsiyani pasaytirishga, aholi bandligini oshirishga bo'lgan ta'sirlarini o'rganish kabi jihatlar ham ushbu iqtisodiy ko'rsatkich (indikator)ning qay darajada muhim ahamiyat kasb etishini bildiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot samaradorligini belgovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi hisoblanar ekan, ushbu iqtisodiy tushunchaning mazmun va mohiyati bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda turli ta'riflar berilgan, xususan monetizatsiya – bu:

- tovarlarni muomalada bo'lish uchun pulni yetarli miqdorda chiqarilishi sifatida belgilanadi<sup>2</sup>;
- iqtisodiyotni to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur pul miqdori bilan to'ldirish jarayoni<sup>3</sup>;
- milliy xo'jalikni pul mablag'lari bilan ta'minlash darajasi<sup>4</sup>;
- iqtisodiyotni pul bilan ta'minlash darajasini tavsiflovchi makroiqtisodiy ko'rsatkich<sup>5</sup> va hok.

Bizning fikrimizcha, monetizatsiya bu makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, iqtisodiyotda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ularni ayirboshlash uchun yetarli darajada pul va unga tenglashtirilgan likvid aktivlar bilan ta'minlanish jarayonini, darajasini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni bajarish jarayonida umumlashtirish, guruhlash, tahlilning mantiqiy va taqoslama usullari, statistik tahlilning korrelyatsiya usuli, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, tanlama adabiyotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda monetizatsiya darajasi monetizatsiya koeffitsiyenti bilan aniqlanadi. Monetizatsiya koeffitsiyenti pul massasining ( $M_2$  jami - naqd pul, cheklar, talab qilib olinmagan depozitlar va korxonalar va aholining banklardagi naqd pul depozitlari) yalpi ichki mahsulotga ( $YalM$ ) nisbatiga teng ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich, iqtisodiyotning pul bilan ta'minlanganlik darajasi haqida tasavvurni beradi:

$$K = M_2/YalM \quad (1)$$

Bu yerda:

$K$  – monetizatsiya koeffitsiyenti;

$M_2$  – pul agregati (pul massasi);

$YalM$  – yalpi ichki mahsulot.

$M_2$  pul agregati o'z ichiga  $M_0$  va  $M_1$  pul agergatlarini qamrab oladi. Bundan kelib chiqadiki, mamlakatning monetizatsiya darajasini aniqlashda qaysi komponent hisobidan monetizatsiya darajasi o'sgan yoki pasayganini tahlil qilish imkonini beradi.

Moliya bozori rivojlangan va naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi to'liq raqamlashgan davlatlarda monetizatsiya darajasi  $M_3$  ( $M_2$ + ikki yilgacha muddatga kelishilgan depozitlarni, uch oygacha bo'lgan muddatga to'lanishi mumkin bo'lgan depozitlarni va repo shartnomalarini, pul bozoridagi fond ulushlari va ikki yilgacha bo'lgan qarz qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi) va/yoki  $M_4$  (naqd puldan holi) pul massasining yalpi ichki mahsulotga ( $YalM$ ) nisbati bo'yicha ham aniqlanadi.

Tadqiqotchilar iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi rivojlanayotgan mamlakatlarda 10-20%, rivojlangan mamlakatlarda 40-50%larda bo'lishini qayd etadilar<sup>6</sup> (ushbu fikrga quyida atroflicha to'xtalib o'tamiz). Ammo bugungi kunda global miqyosda raqamli texnologiyalar rivojlangan sharoitda ushbu ko'rsatkich ayrim rivojlangan mamlakatlarda (AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy va b.) 100-200%dan oshgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda (Braziliya, Hindiston, Rossiya, Qozog'iston va b.) 50-90%ni tashkil qiladi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 16% ni tashkil qilmoqda<sup>7</sup>.

2 Деньги. Кредит. Банки: учеб. пос. – 2-е изд., перераб. и доп. / под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2009. – 848 с


3 Кравцова, Г.И. Деньги, кредит, банки / Г.И. Кравцова. – Минск: БГЭУ, 2007. – 448 с

4 Лопатников Л.И. Экономико–математический словарь: Словарь современной экономической науки / Л.И. Лопатников. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Дело, 2003. – 520 с.

5 Арбузов, С.Г. Банківська енциклопедія / С.Г. Арбузов, Ю.В. Колобов, В.І. Міщенко, С.В. Науменкова. – К.: Центр наукових досліджень Національного банку України: Знання, 2011. – 504 с. – URL: <http://www.bank.gov.ua/doccatalog/document?id=112997>

6 G.Chandavarkar Anand. Monetization of Developing Economies. IMF Paper work. 1977.


7 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari (<https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/?year>)



1-jadval: 2017-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining pul bilan ta'minlanish (monetizatsiya) darajasi ko'rsatkichlari<sup>8</sup>

Yillar	Pul massasi (M2), trln. so'm	YalM, trln.so'm	Monetizatsiya darajasi (%da)	Monetizatsiya darajasining o'zgarishi (%da)
1	2	3	4=2/3*100%	5
2017	70,816	318,00	15,8	-
2018	80,165	426,64	16,6	+ 1,8
2019	91,266	532,71	15,1	- 0,5
2020	107,604	605,51	15,1	0
2021	140,184	738,42	14,6	- 0,5
2022	189,085	888,34	15,8	+ 1,2
2023*	210,505	1029,91	20,4	+ 4,6

\* prognoz ko'rsatkichlar



1-rasm: 2017-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining YalM, pul massasi (M2) va monetizatsiya darajasi ko'rsatkichlari<sup>9</sup>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: <https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/?-year>



Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 2017-2023-yillar davomida iqtisodiyotni pul bilan ta'minlash, ya'ni monetizatsiya darajasi 14,6-20,4 chegarasida bo'lgan. 2017 va 2018-yillarda monetizatsiya ko'rsatkichi biroz o'sib brogan bo'lsa, 2019-yildan 2021-yilgacha ushbu ko'rsatkich pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bunga mamlakatimizda shu davrda qat'iy monetar siyosat olib borilganligi, moliyaviy bozorlar faoliyatida yuqori risk darajasi yuzaga kelganligi va Covid-19 pandemiyasini sabab qilib olish mumkin. 2022-yildan boshlab esa iqtisodiy faollik jadallashganligi, investisiyalar, shu jumladan tashqi investisiyalar oqimining ortganligi va moliyaviy bozorlar faoliyatida o'rtacha risk darajalari yuzaga kelganligi bois iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi tezlashib 2023-yil oxiriga kelib 20,4%ga yetishi prognoz qilinmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda monetizatsiya darajasi dinamikasi ijobiy o'sish tendentsiyaga ega va uni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Ammo yuqorida qayd etib o'tilganidek, iqtisodiyotda monetizatsiya darajasining oshishi yoki kamayishi mamlakat Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan maqsadli pul-kredit siyosatiga bog'liq.

Markaziy bank Boshqaruvining 2023-yil 26-oktyabridagi yig'ilishida "Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025-2026-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"ga bag'ishlangan yig'ilishida iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlar va kutilmalar biroz tezlashganligi sababli qat'iy pul-kredit siyosati davom ettirilishi hamda amaldagi asosiy stavka o'zgarmasligi haqida qaror qildi<sup>10</sup>. Ushbu qaror o'z navbatida iqtisodiyotda monetizatsiya darajasini keskin oshirmaslik, yil oxirigacha inflatsiyaning prognoz ko'rsatkichlarini (8,5–9,5 foiz) saqlash, 2023-yilga reja qilingan 5 foizlik inflyatsion targetga erishish muddatini uzaytirish chora-tadbirlarini ham qamrab olgan<sup>11</sup>.

2-jadval: 2017-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasining pul massasining hajmi (trln. so'm hisobida)<sup>12</sup>

Yillar	Pul massasi (M2) hajmi, trln. so'm	Pul massasining o'sishi (%da) 2017 = 100%	Pul massasining o'sish sur'ati (%da)	Pul massasining qo'shimcha o'sish sur'ati (%da)
			oldingi yilga nisbatan	
2017	70,816	100,0	140,9	40,9
2018	80,165	113,2	113,2	13,2
2019	91,266	128,9	113,8	13,8
2020	107,604	151,9	117,6	17,6
2021	140,184	197,9	130,3	30,3
2022	189,085	267,0	134,9	34,9
2023*	210,505	297,3	111,3	11,3

\* prognoz ko'rsatkichlar

Mazkur jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2017-2023-yillarda M2 pul massasi 2,7 baravarga ko'paygan bo'lsa, eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari 2017 (40,9%) va 2022-yillarda (34,9%) yuz bergan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida inflyatsiya darajasining 2017-yildagi 18,8% dan 2022-yildagi 12,3% gacha pasayganligidir. Shuningdek, YIM hajmining 2017-yildagi 318,0 trln. so'mdan 2022-yilga kelib 888,34 trln. so'mga yoki qariyb 3 baravarga, pandemiya davrida (2019-2020) esa pul massasi o'rtacha 15,7% ga oshganligidir.

3-jadval: O'zbekistonda 2017–2023-yillarda M2 pul agregati hajmi tarkibining o'zgarish dinamikasi, (trln. so'm hisobida)<sup>13</sup>

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
M0	13,209	19,449	22,164	24,246	24,920	28,657	42,206
M1	57,607	60,616	69,102	83,358	115,264	160,428	168,299
M2	70,816	80,165	91,266	107,604	140,184	189,085	210,505

10 Markaziy bank Boshqaruvining 2023-yil 26-oktyabridagi yig'ilishida "Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025–2026-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari". [https://cbu.uz/oz/press\\_center/releases/1451705/](https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1451705/)

11 Markaziy bank Boshqaruvining 2023 yil 26 oktyabridagi yig'ilishida "Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025–2026-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari". [https://cbu.uz/oz/press\\_center/releases/1451705/](https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1451705/)

12 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: <https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?-year>

13 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: <https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?-year>





Iqtisodiyotning monetizatsiya darajasini M2 pul massasining agregatlari (M0 va M1) kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, naqd pul massasi (M0) 2017-2023-yillar davomida o'rtacha 28,997 trln. so'mga oshgan bo'lsa, naqd pulsiz massa (M1) 110,622 trln. so'mga oshgan. Naqd pulning hajmi 3,2 va naqd bo'lmagan pul massasi 2,9 barobarga ko'payishining asosiy sabablari bu shu davrdagi YaIM hajmining o'sishi, pulga bo'lgan talabning ko'payishi, xususan, mamlakat hududida aholiga qulaylik yaratishda bankomatlarning uzluksiz ishlashini ta'minlash maqsadida naqd pul massasini oshirilishi kuzatilgan.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, iqtisodchilar iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi me'yori haqida turlicha fikrlarga ega, an'anaviy va raqamli iqtisodiyot sharoiti (raqamli texnologiyalar rivojlanmagan sharoit nazarda tutilyapti) hamda pul agregatlarining tarkibi (M0, M1, M2, M3, M4)ga ko'ra iqtisodiyotning monetizatsiya ko'rsatkichi muayyan darajada me'yorlashtirilishi naqd pul, naqd pulsiz yoki boshqa unga tenglashtirilgan likvid mablag'larning tovar va xizmatlar bilan ta'minlanmaganligi natijasida yuzaga keladigan inflyasion kutilmalar, iqtisodiy o'sish, investisiya va ish bilan bandlik masalalarini tadqiq va tahlil qilishni dolzarb masalalarga aylantiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda iqtisodiyotning monetizatsiya darajasini ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (YaIM, inflyasiya, ishsizlik darajasi)ga bo'lgan ta'sirini tahlil qilib chiqishga harakat qilamiz.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda shu mamlakat hududidagi barcha korxonalarda yaratilgan shu mamlakat taraqqiyoti va aholisi faravonligi yo'lida foydalanadigan, bevosita iste'molchilarga borib yetadigan tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar yig'indisidan iboratdir<sup>14</sup>.

Mamlakat iqtisodiyoti so'nggi yillarda (2017-2023 yy.) barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda (3-jadvalga qarang), bu esa o'z navbatida iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tezlashtirmoqda:

4-jadval: 2017-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining YaIM ko'rsatkichi<sup>15</sup>

Yillar	YaIM hajmi. trln. so'm	YaIM deflyatori (%da)	YaIM qo'shimcha o'sish sur'ati (%da)
2017	318,00	19,1	4,4
2018	426,64	27,0	5,6
2019	532,71	17,8	6,0
2020	605,51	11,4	2,0
2021	738,42	13,5	7,4
2022	888,34	13,8	5,7
2023	1029,91	10,0	5,4

2-rasm: 2017-2023-yillarda O'zbekistonda YaIM va M2 ko'rsatkichlarining qo'shimcha o'sish sur'atlari (%da)

Korrelyatsion tahlil metodidan foydalangan holda monetizatsiya darajasining YaIMga qanday bog'lanishini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun esa Pirson koeffitsiyentidan foydalanib, ko'rsatkichlar o'rtasida bog'lanish tasniflari va zichligini aniqlaymiz hamda determinatsiya koeffitsiyentini hisoblab chiqamiz.

Pirson koeffitsiyentini (chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti) quyidagi formula orqali aniqlashimiz mumkin:

$$r_{xy} = \frac{\overline{xy} - \bar{x} * \bar{y}}{\sigma_x * \sigma_y} \quad (2)$$

Bu yerda  $r_{xy}$  – korrelyatsiya koeffitsiyenti;

$\overline{xy}$  - o'rganilayotgan belgilarning o'rtacha ko'paytirilishi;

$\bar{x}$  - " $\bar{x}$ " belgining o'rtacha qiymati;

$\bar{y}$  - " $\bar{y}$ " belgining o'rtacha qiymati.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti -  $1 \leq r \leq +1$  chegarasida bo'ladi. Modul bo'yicha birlikka qanchalik yaqin bo'lsa, chiziqli korrelyatsion bog'liqlik shunchalik yuqori bo'ladi, nuqtalar to'g'ri chiziqqa qanchalik yaqin joylashsa, chiziqli model shunchalik to'g'ri va ishonchli bo'ladi. Agar  $r = -1$  yoki  $r = +1$  teng bo'lsa bu qat'iy chiziqli bog'liqlik mavjudligi to'g'risida dalolat beradi, bunda barcha empirik nuqtalar qurilgan to'g'ri chiziqda joylashgan bo'ladi. Va aksincha,  $r$  nolga qanchalik yaqin bo'lsa, nuqtalar shunchalik tarqaladi, chiziqli bog'liqlik kamroq ifodalanadi.

Chiziqli bog'lanish darajasini baholash uchun Cheddok shkalasidan foydalanamiz.

14 Sh.Shodmonov, M. Rahmatov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Zamin nashr", 2021.- 458-bet.

15 O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. [www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2](http://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2)

5-jadval: Cheddok shkalasi<sup>16</sup>

r - qiymatlar diapazoni	“y” ni “x” dan korrelyatsion bog‘liqligi
0 – 0,1	bog‘liq emas
0,1 – 0,3	sezilarsiz
0,3 – 0,5	o‘rtacha
0,5 – 0,7	sezilarli
0,7 – 0,9	kuchli
0,9 – 0,99	juda kuchli
0,99 - 1	funksional

Bunda  $r < 1$ , teskari bog‘lanish kuzatiladi va  $r > 1$  to‘g‘ri bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

Determinatsiya koeffitsiyenti bizga o‘zgarish belgisi natijaviy belgiga qanday ta‘sir etganini ifodalab beradi. Determinatsiya koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$R = r^2 \quad (3)$$

Bu yerda  $R$  – determinatsiya koeffitsiyenti;

$r$  – korrelyatsiya koeffitsiyenti.

Yuqorida keltilgan yondashuv bo‘yicha mamlakatimizda monetizatsiya koeffitsiyentining o‘zgarishini ishsizlik, inflatsiya darajasi va YalM ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganamiz.

Mamlakatda ishsizlik darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$I_d = n / M_r * 100\% \quad (4)$$

Bu yerda:  $I_d$  – ishsizlik darajasi, %;

$n$  – ishsizlar soni, kishi;

$M_r$  – ishga layoqatli aholi qismi, kishi<sup>17</sup>.

6-jadval: 2017-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlari<sup>18</sup>

Yillar	Iqtisodiy faol aholi, ming kishi	Ishsizlar, ming kishi	Ishsizlik darajasi (%da)	Ishsizlik darajasining o‘zgarishi
2017	14357,3	837,0	5,8	↑
2018	14641,7	1368,6	9,3	↑
2019	14876,4	1335,3	9,0	↓
2020	14797,4	1561,0	10,6	↑
2021	14980,7	1441,8	9,6	↓
2022	15038,9	1332,7	8,9	↓
2023*	15162,4	1318,5	8,4	↓

\* prognoz ko‘rsatkichlar.<sup>19</sup>

Monetizatsiya koeffitsiyent hamda ishsizlik darajasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashda korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanamiz. Korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash orqali -0,21647 natijani berdi. Natija shuni ko‘rsatmoqdaki, monetizatsiya koeffitsiyenti va ishsizlik darajasi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjudligini va bu bog‘lanish mezonlarga asosan sezilarsiz.


Yuqoridagi rasm ishsizlik darajasining monetizatsiya koeffitsiyentiga bog‘liqligini grafik talqinidir. Grafik ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, monetizatsiya darajasi va ishsizlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti sezilarsizdir. Determinatsiya koeffitsiyenti 0,04685 teng. Ko‘rib chiqilgan metod bo‘yicha ishsizlik darajasining ko‘rsatkichi 4,7 % moneti-zatsiyaga bog‘liq bo‘lsa, qolgan qismi boshqa omillar o‘zgarishi hisobiga ro‘y beradi.

16 [http://mathprofi.ru/linejnyj\\_koefficient\\_korrelyacii.html](http://mathprofi.ru/linejnyj_koefficient_korrelyacii.html)

17 A. O‘lmasov, A.V. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 272 – bet

18 O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. [www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2](http://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2)

19 <https://dunyo.news/uz/news/gazeta-khvzh-2023-yilda-uzbekiston-yaim-usishi-prognozini-yakshiladi-6526c7caa7da5>



3-rasm: Ishsizlik darajasining monetizatsiya koeffitsiyentiga bog'liqligi


Endi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik inflatsiya ma'lumotlariga tayanib monetizatsiya darajasi va inflatsiya o'rtasida bog'lanishni tahlil qilamiz (5-jadval).

7-jadval: 2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida inflatsiya darajasi<sup>20</sup>

Yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023*
Inflatsiya darajasi, %	18,8	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3	9,5

\*prognoz ko'rsatkichi<sup>21</sup>

Olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, monetizatsiya va inflatsiya ko'rsatkichlari o'rtasida teskari aloqa borligini va korrelyatsiya koeffitsiyenti - 0,30204 ga teng. Bu natija monetizatsiya darajasi va inflatsiya o'rtasida bog'lanish tasnifiga asosan o'rtachadir. Buni grafik talqinini quyidagi 4-rasmda ko'rishimiz mumkin.




4-rasm: Inflatsiyaning monetizatsiya darajasiga bog'liqligi

Keltirilgan grafikdan ko'rinib turibdiki nuqtalar unchalik tarqoq emas, trend chizig'i o'rtasida joylashgan. Bu yuqoridagi xulosamizni isbotlab bermoqda. Mamlakatimizda monetizatsiya darajasi o'sgan sari inflatsiya darajasi pasayib bermoqda, bu ijobiy tendentsiya. Determinatsiya koeffitsiyenti bunda 0,0912 ni tashkil qildi, yani inflatsiyaning o'zgarishi 9,1% monetizatsiya hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ishsizlik, inflatsiya ko'rsatkichlari singari mamlakatning YaIM ko'rsatkichi makroiqtisodiy indikatorlaridan biridir. YaIM ko'rsatkichiga shakllanishiga bir nechta omillar ta'sir qiladi. Bu omillarni ikki guruhga ajratishimiz mumkin bu ichki va tashqi omillar. Shuning uchun birgina monetizatsiya darajasi ta'sir qilishi bunda xato bo'ladi. Abstraksiya metodidan foydalanib monetizatsiya va YaIM ko'rsatkichlarini tahliliga kirishamiz. Buning uchun 2-jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

<sup>20</sup> <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>

<sup>21</sup> <https://www.spot.uz/oz/2022/10/27/inflation/>



5-rasm: YalM ko'rsatkichining monetizatsiya darajasiga bog'liqligi

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki YalM va monetizatsiya darajasi o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjud. Korrelyatsiya koeffitsiyenti esa 0,53003 ga teng, ya'ni bu ikki ko'rsatkich o'rtasida sezilarli bog'lanish bor. Monetizatsiya darajasining o'sishi mamlakatning YalM ko'rsatkichiga sezilarli darajada ta'sir qilib uni o'sishini ta'minlaydi. Determinatsiya koeffitsiyenti natijada 0,2809 ga teng bo'lib, monetizatsiyaning YalM ko'rsatkichidagi his-sasi 28,1 % ni belgilab berdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar natijalari bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak monetizatsiya darajasining o'zgarishi makro-darajada mamlakatimizda ishsizlik darajasiga nisbatan teskari bo'lib, sezilasiz darajada ta'sir qiladi, inflatsiya ko'rsatkichiga ham teskari aloqada bo'lib uning ta'siri o'rtachadir. Lekin YalM ko'rsatkichi va monetizatsiya darajasi o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjud bo'lib sezilarli darajada ta'sir kuchiga ega.

Xulosa qilib aytganda, monetizatsiya darajasining o'zgarishi ishsizlik ko'rsatkichi o'zgarishiga deyarli ta'sir qilmaydi, ya'ni ishsizlik darajasini muvofiqlashtirish uchun bu ko'rsatkichni hisobga olmasligimiz mumkin. Lekin inflatsiya darajasini kamaytirishga va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda YalM ko'rsatkichini oshirib borishga monetizatsiya ko'rsatkichlaridan foydalanishimiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Svetlana Zenchenko, Wadim Strielkowski, Lubos Smutka, Tomáš Vacek. Monetization of the Economies as a Priority of the New Monetary Policy in the Face of Economic Sanctions. Journal of Risk and Financial Management 15(3):140, March 2022. DOI:10.3390/jrfm15030140
2. Деньги. Кредит. Банки: учеб. пос. – 2-е изд., перераб. и доп. / под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2009. – 848 с.
3. Кравцова, Г.И. Деньги, кредит, банки / Г.И. Кравцова. – Минск: БГЭУ, 2007. – 448 с.
4. Лопатников Л.И. Экономико–математический словарь: Словарь современной экономической науки / Л.И. Лопатников. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: Дело, 2003. – 520 с.
5. Арбузов, С.Г. Банківська енциклопедія / С.Г. Арбузов, Ю.В. Колобов, В.І. Міщенко, С.В. Науменкова. – К.: Центр наукових досліджень Національного банку України: Знання, 2011. – 504 с. – URL: <http://www.bank.gov.ua/doccatalog/document?id=112997>
6. G.Chandavarkar Anand. Monetization of Developing Economies. IMF Paper work. 1977.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari (<https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/?year>)
8. Markaziy bank Boshqaruvining 2023-yil 26-oktyabridagi yig'ilishida "Pul-kredit siyosatining 2024 yil va 2025–2026-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari". [https://cbu.uz/oz/press\\_center/releases/1451705](https://cbu.uz/oz/press_center/releases/1451705)
9. Sh.Shodmonov, M. Rahmatov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Zamin nashr", 2021.–458 bet.
10. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari. [www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2](http://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2)
11. [http://mathprofi.ru/linejnyj\\_koefficient\\_korrelyacii.html](http://mathprofi.ru/linejnyj_koefficient_korrelyacii.html)
12. A. O'lmasov, A.V. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 272-bet.
13. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari. [www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2](http://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2)
14. <https://dunyo.news/uz/news/gazeta-khvzh-2023-yilda-uzbekiston-yaim-usishi-prognozini-yakshiladi-6526c7caa7da5>
15. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>
16. <https://www.spot.uz/oz/2022/10/27/inflation/>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.